

ANDIJON VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar-iyun*



ANDIJON VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2023- yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni **3 354,2** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **31,4** ming kishiga yoki **100,9 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 751,8** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **52,2 %**), qishloq aholisi soni **1 602,4** ming kishi (**47,8 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3 354,2 ming
kishi

Tabiiy o'sish

+32,2 ming
kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



52,2%

Qishloq



47,8%

Aholining tabiiy harakati,

2022- yil yanvar-iyun, dastlabki ma'lumotlar (kishi)


	Kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2022- yil	2023- yil	<i>o'sish, kamayish, +,-</i>	2022- yil	2023- yil
Tug'ilganlar	38 108	39 319	1 211	23,5	23,8
O'lganlar	7 098	7 087	-11	4,4	4,3
Nikohlar	8 989	7 954	-1 035	5,5	4,8
Ajralishlar	2 527	2 854	327	1,6	1,7
Ko'chib kelganlar	3 283	3 127	-156	2,0	1,9
Ko'chib ketganlar	4 019	3 929	-90	2,5	2,4

	2022- yil	2023- yil	<i>o'sish, kamayish, +,-</i>	2022- yil	2023- yil
Tug'ilganlar	38 108	39 319	1 211	23,5	23,8
O'lganlar	7 098	7 087	-11	4,4	4,3
Nikohlar	8 989	7 954	-1 035	5,5	4,8
Ajralishlar	2 527	2 854	327	1,6	1,7
Ko'chib kelganlar	3 283	3 127	-156	2,0	1,9
Ko'chib ketganlar	4 019	3 929	-90	2,5	2,4

Andijon viloyati bo'yicha assosiy demografik ko'rsatkichlar 2023- yil yanvar-iyun




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni 2023- yil 1-iyul holatiga



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, viloyatda doimiy aholisi sonining **32,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **11,4 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi

2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yil 1- yanvar holatiga Andijon viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **204,9 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **61,3 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **187,8 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **66,7 ming kishini** tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2023- yil 1- iyul holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

1-iyul holatiga daslabgi, kishi

	2022- yil	2023- yil	<i>O’sish sur’ati, % da</i>
Viloyat bo‘yicha:	3 283 802	3 354 152	102,1
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	463 205	473 830	102,3
Xonobod	44 407	45 444	102,3
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko‘l	186 605	190 669	102,2
Andijon	276 818	282 614	102,1
Baliqchi	208 746	213 184	102,1
Bo‘ston	75 404	76 841	101,9
Buloqboshi	148 199	151 113	102,0
Jalaquduq	193 150	196 816	101,9
Izboskan	247 402	252 379	102,0
Ulug‘nor	62 276	62 488	101,9
Qo‘rg‘ontepa	223 914	227 842	101,8
Asaka	343 273	350 650	102,1
Marhamat	180 398	184 109	102,1
Shahrixon	312 995	320 338	102,3
Paxtaobod	201 565	206 245	102,3
Xo‘jaobod	115 445	118 590	102,7

Andijon viloyati bo'yicha aholi zichligi


2023- yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Andijon viloyatida 2023- yil 1- iyul holatiga 1 kvadrat kilometrغا o'rtacha **780** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **16** kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga **764** kishi).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko'rsatkichi Andijon shahrida **6 769** kishi, Xonobod shahrida **2 272** kishi kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Bo'ston tumanida **384** kishi, Ulug'nor tumanida **151** kishini tashkil etgan.

Andijon viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR



Tug'ilganlarning taqsimlanishi



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (%)

2023- yil yanvar-iyun, kishi




2023- yilning yanvar - iyun oylarida tug'ilganlar soni 39 319 kishini tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (38 108 kishi) nisbatan 1 031 taga ko'paydi, Shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 23,6 promilleni tashkil qildi va avvalgi yilga nisbatan 0,3 promilleda o'sish bo'lgan.

Yanvar -Mart




Yanvar -Iyun



O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun, kishi




2023- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etgancharning 68,4 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 6,6 % o’smalardan, 3,7 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,2 % ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, 3,9 % nafas olish a’zolari kasalliklaridan, 0,8 % yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 3,7 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

VAFOT ETGANLAR



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti 2023- yil yanvar-iyun, kishi



2023- yil yanvar – iyun oylarida 7 954 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,8 promilleni tashkil etdi.

Vafot etganlarning taqsimlanishi

Yanvar-Mart

Erkaklar

1 935

Ayollar

1 581



Yanvar-Mart

Shahar joylarda

1 936

Qishloq joylarda

1 580



Yanvar -Iyun

Erkaklar

3 855

Ayollar

3 232



Yanvar -Iyun

Shahar joylarda

3 953

Qishloq joylarda

3 134




QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, birlik



Nikoh tuzish koeffitsientining avvalgi yilga nisbatan eng ko'p o'sishi Qo'rg'ontepqa tumanida (0,3 promillega) kuzatildi.

Nikoh koeffitsiyentining eng ko'p pasayishi Jalaquduq tumanida (1,2 promillega), Oltinko'l tumanlari (1,1 promillega) va Andijon shaharda (1,0 promillega) kuzatildi

Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar-Fevral

Shahar

1 227



Qishloq

1 277



Mart

Shahar

571



Qishloq

594



Aprel-May

Shahar

1 349



Qishloq

1 371



Iyun

Shahar

746



Qishloq

819




NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, birlik



■ Ajrim, birlik ■ Ajrim koeffitsiyenti, promille

2023- yil yanvar-iyun oylarida **2 854** ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,7** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,1** promillega oshganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-iyun oylarida **1,6** promille bo‘lgan).

Nikohdan ajralishlarning taosimlanishi

Yanvar-Fevral

Shahar

540



Qishloq

407



Mart

Shahar

307



Qishloq

231



Aprel-May

Shahar

541



Qishloq

445



Iyun

Shahar

206




Qishloq

177



Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun



2023- yil yanvar-dekabr oylarida Andijon viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **59,6** % i farzandsiz, **24,9** % i bitta farzand bilan va **15,5** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.



Aholining migratsiya ko'rsatkichlari
(yanvar - iyun)
(kishi)

	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldozi</i>	
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>

Viloyat bo'yicha	3 283	3 127	4 019	3 929	-736	-802
-------------------------	--------------	--------------	--------------	--------------	-------------	-------------

shaharlar:

Andijon	862	845	1 031	1 008	-169	-163
Xonobod	106	124	64	89	35	29

tumanlar:

Oltinko'l	323	234	215	188	46	169
Andijon	577	468	428	398	149	70
Baliqchi	138	104	169	204	-100	269
Bo'ston	105	70	85	91	20	-21
Buloqboshi	74	74	192	151	-77	269
Jalaquduq	142	126	252	271	-110	-145
Izboskan	11	28	284	228	-200	484
Ulug'nor	16	29	69	65	-53	-36
Qo'rg'ontep'a	135	257	246	286	-29	275
Asaka	132	174	255	244	-123	-70
Marhamat	108	80	162	164	-84	246
Shahrixon	92	107	232	222	-140	-115
Paxtaobod	150	81	182	159	-78	260
Xo'jaobod	312	326	153	161	159	165

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va hududdan ko'chib ketganlar soni ayrıldi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar



organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtaсидagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 74 228-30-54